

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI
RIVOJLANTIURUVCHI MARKAZLAR ORQALI TARBIYALASHDA SHAXSGA
YO'NALTIRILGAN YONDASHUV

Ergasheva Nodira Ulug`bek qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Maktabgacha ta`lim fakulteti talabasi

ergashevan186@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda rivojlantiruvchi markazlar orqali ta`lim-tarbiya olishi, tamoyillar orqali shakllanishi, bolalarning qobiliyatlari va imkoniyatlar, shaxsga yo`naltirilgan tamoyillar haqida tushuncha berib o`tilgan.*

Аннотация: *В данной статье дано понимание воспитания детей дошкольного возраста через центры развития, формирования через принципы, способностей и возможностей детей, лично-ориентированных принципов.*

Abstract: *In this article, an understanding of preschool children's education through development centers, formation through principles, children's abilities and opportunities, and person-oriented principles has been given.*

Kalit so`zlar: *rivojlantiruvchi markazlar, shaxs, tamoyil, model, ta`lim, qobiliyat, imkoniyat.*

Ключевые слова: *центры развития, человек, принцип, модель, образование, способность, возможность.*

Key words: *development centers, person, principle, model, education, ability, opportunity.*

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimining mazmunini yangilash ta'lim-tarbiya jarayonining individuallasuvi, pedagogning bolalar bilan shaxsga yo'naltirilgan muloqotini ta'minlashni nazarda tutadi. Bugungi kunda bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotiga moslashtirilmaslik kerak, aksincha maktabgacha ta'lim tashkiloti har bir bola uchun uning qobiliyati, imkoniyati, ruhiy va jismoniy holatlarini e'tiborga olgan holda zarur sharoitlarni yaratishga intilishi kerak.

Har bir bola shaxsining betakrorligi va noyobligini hisobga olgan holda uning shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlarini qo'llab-quvvatlash pedagoglarga ta'lim-tarbiya jarayonida individual yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantirish markazlarini yaratish ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning muhim omili hisoblanadi.

Guruh xonasida rivojlantirish markazlarini yaratishda maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishida o'yin faoliyatining yetakchi rolini hisobga olib, bu o'z navbatida har bir bolaning emotsional holatini yaxshilaydi, ularning ijobiy his-tuyg'ularini,

dunyoga, odamlarga, o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabat kompetensiyalarini rivojlantirish, o‘zaro hamkorlikda bo‘lish kabi maktabgacha ta‘lim maqsadlari amalga oshiriladi.

Bugungi kunda bolalar maktabgacha ta‘lim tashkilotiga moslashtirilmaslik kerak, aksincha maktabgacha ta‘lim tashkiloti har bir bola uchun uning qobiliyati, imkoniyati, ruhiy va jismoniy holatlarini e‘tiborga olgan holda zarur sharoitlarni yaratishga intilishi kerak. Har bir bola shaxsining betakrorligi va noyobligini hisobga olgan holda uning shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlarini qo‘llab-quvvatlash pedagoglarga ta‘lim-tarbiya jarayonida individual yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi. O‘zbekistonda maktabgacha ta‘lim tizimining mazmunini yangilash ta‘lim-tarbiya jarayonining individuallasuvi, pedagogning bolalar bilan shaxsga yo‘naltirilgan muloqotini ta‘minlashni nazarda tutadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv – bu pedagogning e‘tiborini bolaning ajralmas shaxsiga, uning nafaqat intellektual qobiliyatlari va fuqarolik mas‘uliyat hissini rivojlantirishga bo‘lgan e‘tiborini, balki hissiy, estetik, ijodiy moyilliklari va rivojlanish imkoniyatlariga ega bo‘lgan ruhiy shaxsni rivojlantirishga qaratishdir. Ta‘limning asosiy qadriyatining bunday e‘tirof etilishi shaxsning o‘ziga xos shakllanishidir. Biz har bir bolaga uning xususiyatlarini, hayotiy qadriyatlarini, intilishlarini aniqlash asosida o‘zlarining rivojlanish yo‘llarini tanlash huquqini berishimiz kerak.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim faollik markazida tarbiyalanuvchining o‘zi, ya‘ni bolani shaxs sifatida – uning xohish-istaklari, niyatlari, maqsadlari, noyob kichik hayot tajribasi ekanligi taxmin qilinadi. Shu munosabat bilan ta‘lim jarayoni ta‘lim “bilimlarni kattadan bolaga o‘tkazish” modelidan, “bola tashabbuslari ma‘qullanadigan va bola ta‘lim jarayonida faol ishtirok etadigan” modelga yo‘naltirilishi kerak.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limning maqsadi: bolani o‘ziga xos shakllantirish uchun zarur bo‘lgan o‘zini-o‘zi anglash, rivojlantirish, moslashtirish, boshqarish, himoya qilish, tarbiyalash mexanizmlarini kiritishdan iborat.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim modeli – bizning ta‘lim tizimimizga tanish bo‘lgan bolaga ta‘lim va intizomiy yondashuvni yengishga, pedagoglarni bolalar bilan hamkorlik ko‘nikmalariga, shuningdek, yangi pedagogik texnologiyalarga ega bo‘lishdir. Bola kattalar singari jamiyatning to‘laqonli a‘zosi bo‘lganligi sababli uning huquqlarini tan olish, pedagogik pozitsiyani “yuqoridan” emas, balki yonma-yon va birga olishni anglatadi.

Bugungi kunda har bir bola kattalarning e‘tiborida bo‘lib uning maktabgacha ta‘lim tashkiloti sharoitida barkamol rivojlanishi uchun barcha sharoitlarni yaratib berish muhim vazifadir. Pedagog faqat bola pedagogikasi va psixologiyasi bo‘yicha bilimlarga, faqat bola rivojlanish ko‘rsatkichlari to‘g‘risida ma‘lum miqdordagi bilimlarga ega bo‘lishi kerak emas. Axir, har bir bola yagona va har bir kichikintoyga bo‘lgan munosabat boshqacha bo‘ladi.

Kuzatuvlar pedagogga bola to‘g‘risida ancha ma‘lumot olishga yordam beradi, ya‘ni, boladan nimani kutish, undan nimani talab qilish, bola bilan muloqotda nimani

o'zgartirish kerakligi va unga qanday maqsadlar qo'yish kerakligini. Kuzatish diqqat maqsadli, mazmunli va tizimli bo'lishi shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida rivojlanish markazlarida ta'limiy jarayonlarni tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Rivojlanish markazlari bolalarning real shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlari amalga oshiriladigan, bolalar tomonidan shaxsiy tajriba va bilimlar samarali to'planadigan ta'lim muhitidir.

Rivojlanish markazlarida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv – bu pedagogning e'tiborini bolaning ajralmas shaxsiga, uning nafaqat intellektual qobiliyatlari va fuqarolik mas'uliyat hissini rivojlantirishga bo'lgan e'tiborini, balki hissiy, estetik, ijodiy moyilliklari va rivojlanish imkoniyatlariga ega bo'lgan ruhiy shaxsni rivojlantirishga qaratishdir. Ta'limning asosiy qadriyatining bunday e'tirof etilishi shaxsning o'ziga xos shakllanishidir. Biz har bir bolaga uning xususiyatlarini, hayotiy qadriyatlarini, intilishlarini aniqlash asosida o'zlarining rivojlanish yo'llarini tanlash huquqini berishimiz kerak.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim rivojlanish markazida tarbiyalanuvchining o'zi, ya'ni bolani shaxs sifatida – uning xohish-istaklari, niyatlari, maqsadlari, noyob kichik hayot tajribasi ekanligi taxmin qilinadi. Shu munosabat bilan ta'lim jarayoni ta'lim “bilimlarni kattadan bolaga o'tkazish” modelidan, “bola tashabbuslari ma'qullanadigan va bola ta'lim jarayonida faol ishtirok etadigan” modelga yo'naltirilishi kerak.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning maqsadi: bolani o'ziga xos shakllantirish uchun zarur bo'lgan o'zini-o'zi anglash, rivojlantirish, moslashtirish, boshqarish, himoya qilish, tarbiyalash mexanizmlarini kiritishdan iborat. Misol tariqasida o'zini namoyon qilish tamoyilini ko'rib chiqaylik. Har bir bolada o'zining intellektual, kommunikativ, badiiy va jismoniy qobiliyatlarini namoyon qilish ehtiyoji bor. Bolaning tabiiy va ijtimoiy qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish istagini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash juda muhimdir.

Individuallik tamoyili asosida ta'limiy jarayon tashkil etilganda ta'lim tashkilotining asosiy vazifasi bola shaxsiyatining individual shakllanishi uchun sharoit yaratishdir. Rivojlanish markazlarida ta'limiy faoliyatni tashkil etishda bolaning individual xususiyatlarini (fe'l atvori, odatlari, qiziqishi, rivojlanishida bo'shliq tomoni, intilishi) hisobga olish uning kelgusi rivojlanishiga har tomonlama hissa qo'shish demakligini nazarda tutiladi.

Tanlash tamoyili asosida ta'limiy jarayon tashkil etilganda tanlovsiz bolaning individual xususiyatlari va sub'ektivlikni rivojlantirish, qobiliyatlarini namoyon qilish mumkin emasligi, bola doimiy ravishda tanlashi, ta'lim jarayonini tashkil etishning maqsadi, mazmuni, shakllari va usullarini tanlashda sub'ektiv vakolatlariga ega sharoitda yashashi va tarbiyalanishi pedagogik jihatdan ma'qulligi, aynan buning uchun maktabgacha yoshdagi guruhlarda rivojlanish markazlari zarurligi inobatga olinadi.

Ishonch va qo'llab-quvvatlash tamoyili asosida ta'limiy jarayon tashkil etilganda pedagogik faoliyatni insonparvarlik, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim

texnologiyalari bilan boyitish muhimdir. Bolaga ishonch, o'zini-o'zi anglash va o'zini "men"ligiga bo'lgan intilishlarini qo'llab-quvvatlash, ortiqcha talablar va haddan tashqari nazorat o'rnatmaslik kerak. Tashqi ta'sirlar emas, balki ichki motivatsiya bolani o'qitish va tarbiyalashning muvaffaqiyatini belgilaydi.

Rivojlanish markazlarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini qo'llash har bir bolaning individual xususiyatlariga mos keladigan usul va vositalarini aniqlaydi

Rivojlanish markazlarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini qo'llash

No	Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari	Rivojlanish markazlarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari	Rivojlanish markazlarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini qo'llash
1.	Tadqiqot texnologiyasi	Fan va tabiat bilimlari, insoniyatshunoslik, ruksiyalash va matematika	markazida mustaqil izlanib ko'rish, tajriba orqali bilimlarni o'zlashtirishga o'rgatiladi. Bunda bolalarga tayyor berilmaydi. Muammolarni izlash, kashfiyot orqali bilimlarni o'zlashtirish, tajriba o'tkazishga sharoit yaratiladi
2.	Kommunikativ texnologiyasi	San'at va boshqa bilimlar	bolaga o'z fikrini bayon etish, bahslashish, muammolarni yuzaga keltirish, tasavvurlarini erkin nutq vositasida ifodalashga o'rgatiladi
3.	O'yin texnologiyasi	Syujetli-rolli o'yinlar va o'yinlar orqali bilimlarni o'zlashtirish	bilim, malaka, ko'nikmaga ega bo'lish uchun sharoit yaratiladi. Ta'limiy o'yinlar, voqeaband o'yinlar orqali bilimlarni o'zlashtirishga o'rgatiladi
4.	Refleksiya texnologiyasi	Til va nutq	bolalarga savollar berilib ularni fikr yuritishga, muammolarni tahlil qilishga o'rgatiladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. B.X.Xodjayeov. umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. T.Sano-standart/2017 y.
2. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi 2022 yil
3. R.Yusupova "Maktabgacha tarbiya pedagogikasi" 1993 yil
4. Qodirova F.R., Qodirova R.M. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. Toshkent 2006 yil